

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

7

ISSUE-3



Journal of new  
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

Engineering and  
Medical Sciences

AREAS



**JOURNAL OF NEW CENTURY  
INNOVATIONS  
IN ALL AREAS**



**BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI  
O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI**

*Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich*

*Falsafa fanlari doktori*

*Norkulova Dilorom Oybekovna*

*BuxDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda qo'llaniluvchi mashqlardan biri qayta hikoyalash va bayon turlari haqida so'z boradi. Buning uchun qayta hikoyalash turlariga e'tibor qaratilib, bayonning sinflar kesimida qanday turlari olinishi o'rganib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** bog'lanishli nutq, bayon, qayta hikoyalash, qisqartirib qayta hikoyalash, to'liq qayta hikoyalash, tanlab qayta hikoyalash, ijodiy qayta hikoyalash

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish maqsadida o'tkaziladigan mashq bayon hisoblanadi.

Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng qayta hikoyalashdir. Qayta hikoyalash jarayonida o'quvchi eshitgan matnini xotirasida tiklaydi va eslagan jumllarini o'zaro qayta bog'laydi. Natijada o'quvchining bog'lanishli nutqi rivojlanadi. Matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, matnni og'zaki qayta hikoyalash reja tuzish o'quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Qayta hikoyalash xillari turlicha bo'lib, har qanday qayta hikoyalangan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish og'zaki qayta hikoyalashdan ko'ra murakkab faoliyat hisoblanadi. Chunki bayon yozish jarayonida o'quvchi so'zning orfoepiyasidan chekinib, orfografiyasiga tayanishi kerak. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekin bo'lganligi uchun o'ylangan fikr yozib bo'lingunga qadar, keyingi fikrni unutish, yoxud fikr tarqoqligi yuzaga

kelishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda kompozitsiyasi sodda, hajm jihatdan kichik matn tanlanishining ham sababi shunda.

Boshlang'ich sinflarda bayon 2-sinfdan boshlab yoziladi. 1-sinf o'quvchilarida harflarni yozish ko'nikma darajasida bo'lib, malaka darajasiga ko'tarilmagan bo'ladi. Ya'ni o'quvchi eshitgan matni tarkibidagi so'zlarning tovush tarkibini tezkorlik bilan yoza olmaydi. Eshitgan matnini yozma qayta hikoyalash uchun birinchi sinf o'quvchisi ma'lum bir jumla tuzadi. Keyin esa jumladagi so'zlarni birin-ketin tovush tomonidan tahlil qilib yozaman degunga qadar tuzgan jumlasini unutadi. 1-sinf o'quvchilariga bayon yozdirilimasligini yana ko'plab sabablar bilan asoslab berish mumkin.

2-sinfdan boshlab esa hajm jihatdan katta bo'lmagan, hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlanib, o'qituvchi yordamida savollar asosida bayon yoziladi. Bunda bayon rejalari vazifasini o'qituvchining savollari tashkil etadi. O'quvchilar esa shu savollarga tayangan holda bayon matnini shakllantirishadi. O'qituvchining savollari, reja bu sinfdan olinadigan bayonlarda aks etmaydi.

3-sinfga kelib 2-sinfdan yozilgan hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matnga yana lavhalar qo'shiladi, tasvir elementlari kiritiladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, matn hajmi oshadi va o'quvchilar matnning mazmunini jamoa bo'lib tuzilgan 3-5 reja asosida yoritib berishadi.

4-sinfdan esa o'quvchilarga taqdim etilgan matn hajm jihatdan kattaroq, voqealar rivojiga ega, muhokama elementlari qo'shilgan matn bo'lib, o'quvchilardan matnning shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash ham so'ralishi mumkin. Bu sinfdan yozilgan bayon mustaqil tuzilgan rejaga asoslangan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda bayon mavzusi yangi ma'lumotlar bilan o'quvchilar bilimini boyitishi, dunyoqarashini kengaytirishi uchun kishilarning fidokorona mehnati, hayoti, ona tabiat tasviri, fan, texnika va madaniyat borasidagi yutuqlarni aks ettiradi.

Qayta hikoyalashda namunadagi kabi izchillik, bog'liqlik asosida asosiy faktlarni saqlagan holda, ayniqsa, ilmiy matn qayta hikoyalashda barcha muhim o'rinlar to'liq bayon qilinishi kerak.

Qayta hikoyalash ko'pincha maxsus tayyorgarlik talab etadi. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O'qilayotgan matnni qay holatda qayta hikoyalashlari kerakligi avvaldan aytib o'tiladi: to'liq ( tasviriy vositalardan foydalangan holda matnga yaqin qayta hikoyalash), tanlab (ma'lum bir o'rinlarni, masalan, voqea sodir bo'lgan jarayon yoki joy, qahramon qatnashgan o'rinlar) qayta hikoyalash, qisqartirib ( matnning asosiy o'rinlarini ) qayta hikoyalash ;
2. O'quvchilar bilan matn yaxshi tushunilishi va xotirada yaxshi saqlanishi uchun suhbat, matn mazmunini tahlil qilish, qayta hikoyalash uchun muhim bo'lgan gap, fikrlarni ajratish va aniqlash.
3. Qayta hikoyalsh jarayonida o'quvchi ifodalilikni bera olishi uchun ifodali o'qishni puxtalash

Qayta hikoyalash va bayonning yana bir turi to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash bo'lib, boshlang'ich sinflarda eng ko'p o'tkaziladigan bayon turi hisoblanadi. Chunki bunday bayonlar o'quvchidan voqeadagi izchillik , tasviriy ifodalar va shunga o'xshash narsalarni xotirada saqlashni talab etadi. Natijada o'quvchi xotirasi mustahkam boladi. Shu bilan birga o'quvchi matnga oid so'z va gaplarni xotirada saqlash jarayonida matnga oid so'zlarni o'z nutqiga ko'chiradi , so'z boyligi oshadi.

To'liq qayta hikoya qilishda o'quvchilarga dastlab aniq syujetli matn beriladi, hikoyaga tasviriy ( tabiat , kishilar va predmetlar tasviri) elementlar kiritish ayni shu jarayonda o'quvchilarga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda to'liq qayta hikoyalashga oid bayon quyidagicha tashkil etiladi:

- a) bayon uchun tanlangan matn 2-3 marta o'qiladi ( o'qituvchi o'qib berishi ham mumkin);
- b) bolalarning matn mazmunini to'liq tushunganliklarini bilib olish, matn g'oyaviy mazmuni, qismlar orasidagi bog'lanishni to'liq anglashlari uchun suhbat o'tkaziladi;
- c) reja tuziladi (o'tkazilgan suhbat jarayonida ham reja tuzish mumkin)

d) notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi. Matndagi muhim sintaktik tuzilma va tasviriy vositalarga e'tibor qaratilib, matn qismi yuzasidan gap, hatto, matn qismi ham tuzdirilishi mumkin;

e) o'quvchilar bayon matnini mustaqil yozadilar, o'qituvchi esa ularni kuzatadi, bayonni yozishga qiynalayotgan o'quvchilarga sinfga halaqit bermagan holda yordam beradi;

f) o'quvchilar yozgan bayonlarini o'zlari tekshiradilar, takomillashtirib, tekshirish uchun o'qituvchiga beradilar.

O'quvchilar bayonini muhokama qilish jarayonida yozgan bayonlarini o'qituvchi o'qib bergan bayon bilan solishtirish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda o'quvchilar o'z bayonlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashlari oson bo'ladi.

#### *Tanlab hikoya qilish va bayon*

Tanlab hikoya qilish qayta hikoya qilishning boshqa turlaridan farqli bo'lib, matndan tor mavzu yoki kichik so'roqqa oid qismni qayta hikoyalashga asoslanadi.

Tanlab hikoya qilishning 2 turi mavjud bo'lib, birinchi turida o'qilgan matnning ma'lum qismi yoki bir voqea yuzasidan rasm chizish ko'zda tutilsa, ikkinchi turida esa berilgan savol yuzasidan alohida lavhani hikoyalash ko'zda tutiladi

#### *Qisqartirib qayta hikoyalash va bayon*

Qayta hikoyalashning bu turi boshqa turlariga qaraganda murakkab bo'lib, to'liq matn mazmunini anglagan holda undan asosiy o'rinlarni ajratgan holda bayon etishni taqozo etadi. Buning uchun o'quvchi matn mazmunini anglashi, bog'lanishli, izchil holda hikoya qilib bera olishi kerak. Uning hikoyasi matnning qisqartirilgani emas, matnning asosiy qismlariga tayangan bo'lishi kerak.

Qisqartirilgan bayon yozish uchun o'qituvchi boshchiligida matn 1-2 marta o'qiladi, matn yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Yoziladigan matndan asosiy va tushirib qoldiriladigan o'rinlar ajratiladi. Reja tuzilib, lug'at ishi o'tkazilgach, gap va matnning ayrim qismlari tuzdiriladi. Shundan so'ng qisqartirilgan bayon yozishga o'tiladi.

Shu tarzda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qayta hikoyalash va bayon turlari o'rgatiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki , boshlang'ich sinf o'quvchilariga bayon va qayta hikoyalash turlarini o'rgatish ular uchun nafaqat fan sohasida , balki hayotda ham asqotadi. Bu kabi mashg'ulot turi ularning birinchi navbatda bog'lanishli nutqini o'stirsa , to'liq qayta hikoyalashni o'rganish orqali xotirasi, qisqartirilgan qayta hikoyalash orqali esa atrofdagi informatsiyalardan muhimlarini ajratib olish qobiliyati rivojlanadi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.
2. Hamroyev A.R., Polotova Y.A. Ona tili oqitish metodikasi. –B.: “Durdona”, 2021.
3. Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –Buxoro.
4. Hamroyev M. Ona tilidan ma'ruzalar majmuasi. – T., 2007.
5. Fuzailov S.,Xudoyberganova M, Yo'ldosheva Sh. Ona tili (3-sinf darsligi). – T.: “O'qituvchi”, 2019.

<b>38</b>	МОДЕЛИРОВАНИЕ ДВИЖЕНИЯ ВОЛОКНИСТОЙ МАССЫ В ЗОНЕ МЕЖДУ ВРАЩАЮЩИМИСЯ ВАЛИКАМИ ПИТАТЕЛЯ ДЖИНА	<b>204</b>
<b>39</b>	FUTBOL O'YININING PAYDO BO'LISH VA RIVOJLANISH TARIXI. O'QUVCHILARGA FUTBOL MASHG'ULOTLARINI O'TISH VA MALAKASINI OSHIRISH USULLARI	<b>209</b>
<b>40</b>	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA "ELEKTRON HUKUMAT" TIZIMINI AMALGA OSHIRILISHI VA TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSLARI	<b>221</b>





# **JOURNAL OF NEW CENTRY INNOVATIONS**

**IN ALL AREAS**

